



EMOTSIONAL INTELLEKTDAGENDER FARQLAR

MUAMMOSI

Raxmatullayeva Zamira Olimjonovna

NamDPI Kreativ pedagogika va psixologiya
kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsional intellektning gender xususiyatlari muammosi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, gender stereotiplari bilan bog'liq holda emotsional intellektning ontogeneznining turli bosqichlarida (maktabgacha yosh, o'smirlik va katta yosh davri) namoyon bo'lish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, gender farqlari, gender stereotiplari, emotsional kompetentlik, shaxslararo munosabatlar, ontogenezn, sotsializatsiya.

Аннотация. В данной статье представлен теоретический анализ проблемы гендерных особенностей эмоционального интеллекта. Также освещаются особенности проявления эмоционального интеллекта на различных этапах онтогенеза (дошкольный возраст, подростковый возраст и взрослый период) в связи с гендерными стереотипами.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, гендерные различия, гендерные стереотипы, эмоциональная компетентность, межличностные отношения, онтогенез, социализация.

Annotation. This article provides a theoretical analysis of the issue of gender characteristics of emotional intelligence. It also highlights the features of emotional intelligence manifestation at various stages of ontogenesis (preschool age, adolescence, and adulthood) in relation to gender stereotypes.

Keywords: Emotional intelligence, gender differences, gender stereotypes, emotional competence, interpersonal relationships, ontogenesis, socialization.



Kirish. So'nggi o'n yilliklarda emotsional intellekt muammosi psixologiya fanining eng muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylangan. Insonning his-tuyg'ularni tushunish, ifodalash va boshqarish qobiliyati sifatida ta'riflanuvchi emotsional intellekt nafaqat shaxslararo munosabatlarning muvaffaqiyatiga, balki kasbiy faoliyat samaradorligiga, psixologik salomatlikka va umuman hayotdan qoniqish darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu hodisaning turli jihatlari, jumladan, uning gender xususiyatlari masalasi tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Shuningdek, zamonaviy psixologiya fanida emotsional intellekt sohasidagi gender farqlar masalasi ham dolzarb va munozarali mavzulardan biri hisoblanadi. Mazkur masalaga bo'lgan qiziqish, avvalo, jamiyatda mavjud bo'lgan gender stereotiplari bilan bog'liq bo'lib, ular an'anaviy ravishda ayollarni hissiy jihatdan sezgirroq, erkaklarni esa o'z his-tuyg'ularini boshqarishda kuchliroq deb talqin qiladi. Biroq olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu kundalik kuzatishlarni har doim ham tasdiqlayvermaydi. Ayrim tadqiqotlarda bolalik va o'smirlik davrida gender tafovutlari aniq kuzatilgan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda esa bunday farqlar faqat katta yoshdagilar orasida namoyon bo'lishi qayd etilgan. Mazkur olib borilgan tadqiqot natijalari emotsional intellekt sohasidagi gender farqlar masalasi murakkab va ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi

Asosiy qism. Emotsional intellekt darajasidagi gender farqlar, uning alohida komponentlari bo'yicha tafovutlar ontogeneznining dastlabki bosqichlaridayoq, xususan bolalik va o'smirlik davrida kuzatiladi. Jumladan, 4-5 yoshli qiz bolalarning tengdosh o'g'il bolalarga nisbatan insonlarning emotsional holatlarini chuqurroq anglash qobiliyatiga ega ekanliklarini va berilgan emotsiyani ifodalashda mimik hamda pantomimik vositalardan aniqroq foydalanishlari M.E.Xoroshun tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarida ko'rsatgan [19]. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda



olib borilgan korreksion-rivojlantiruvchi treninglar natijasida ham ma'lum bo'ldiki qiz bolalarda o'g'il bolalarga qaraganda boshqa shaxsga yo'naltirilganlik va uning emotsional kechinmalariga nisbatan sezgirlik faolroq shakllanadi. Aynan ushbu ko'rsatkichlar maktabgacha yosh davridagi bolalar emotsional intellektining muhim tarkibiy komponentlari sifatida M.A.Nguyennning ilmiy qarashlarida ham aks etadi[5].

O'smir qiz va o'g'il bolalar o'rtasida olib borilgan bir qator tadqiqotlarda ham emotsional intellekt darajasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlangan bo'lib, o'smir qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda bu ko'rsatkichlar pastroq ekanligi qayd etilgan [20]. Mazkur natijalar emotsional kompetentlikning shakllanishida gender sotsializatsiyasining ta'sirini ko'rsatadi.

Boshqa bir tadqiqot natijalariga ko'ra aksincha, emotsional intellekt darajasi bo'yicha farqlar faqat katta yoshdagi respondentlar – ota-onalar guruhida aniqlangan. Xususan, ayollarda erkaklarnikiga nisbatan yuqori darajani tashkil etgan. Sh. Bern tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa erkak va ayol shaxslari o'rtasida emotsional sohadagi farqlarning ahamiyatsizligi ko'rsatilgan [2]. Bu natijalar emotsional sohaning umumiyliigi va gender farqlarining murakkab tabiatiga ishora qiladi. Chunki, Sh.Bern tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkaklar va ayollar hissiyotlarni bir xil tarzda his qilishadi.

Boshqa tadqiqotlarda esa erkaklar va ayollar o'rtasida umumiy emotsional intellekt darajasi bo'yicha farqlar kuzatilmagan bo'lsa-da, emotsional intellektning alohida komponentlari bo'yicha muhim tafovutlar aniqlangan [6]. Ayollar emotsional intellektning shaxslararo ko'rsatkichlari – emotsionallik, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha yuqori natijalarni namoyish etadilar. Bu ularning boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni boshqarish qobiliyatining yuqori ekanligidan dalolat beradi.



Erkaklarda esa o'zini tasdiqlash, o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyati, stressni boshqarish (stressga chidamlilik, impulsivlikni nazorat qilish) va moslashuvchanlik (ishonchlilikni aniqlash, muammolarni hal qilish) komponentlari ustunlik qiladi. Erkaklar va ayollarning emotsional olami o'xshash. Biroq jamiyat a'zolari tomonidan o'rnatilgan stereotiplar (erkak yig'lamaydi, ayol esa noliyveradi) tufayli ular bu hissiyotlarni turlicha namoyon qilishlari mumkin.

Shuning uchun ham emotsional sohadagi gender farqlar haqida gapirganda, ularning asl sababi biologik omillardan ko'ra ko'pincha ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligini unutmaslik zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ayollar his-tuyg'ular haqida ko'proq xabardorlikka ega, yuqori emotsionallikni namoyish etadi, ularda qulay shaxslararo munosabatlar shakllanadi va ular erkaklarga nisbatan yuqori ijtimoiy mas'uliyat bilan harakat qiladilar. Erkaklar esa o'z navbatida yuqori darajadagi o'zini hurmat qilish, mustaqillik, stressga chidamlilik, muammolarni samarali hal qilish qobiliyati va optimistik kayfiyat bilan ajralib turadilar. Ushbu natijalar emotsional intellektning gender aspektlari murakkab va ko'p qirrali ekanligini, shuningdek, tadqiqotlarda yosh va metodologik omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева И. Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии / И. Н. Андреева. - Новополюцк : ПГУ, 2011
2. Берн, Ш. Гендерная психология / Ш. Берн. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2001. – 320 с. – (Серия «Секреты психологии»).
3. Goipova, N. B. Q., & Meliboyeva, Y. E. Q. (2025). Nutq rivojlanishining buzilishlari va ularning sabablari. Science and Education, 6(5), 374-381.
4. Maxammadsidiqovna, X. M. (2025). BOLALARDAGI TURLI NUTQ NUQSONLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI.



SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE
THEORY, 3(27), 111-115.

5. Нгуен, М.А. Диагностика уровня развития эмоционального интеллекта старшего дошкольника / М.А. Нгуен // Ребёнок в детском саду. – 2008. – № 1. – С. 83 – 85.

6. Орме, Г. Эмоциональное мышление как инструмент достижения успеха / Г. Орме. – М: «КСП+», 2003. – 272 с.

7. Olimjonovna, R. Z. (2026). BADIY ADABIYOT MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Latin American journal of education*, 6(1), 41-45

8. Olimjonovna, R. Z. (2025). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA AXLOQIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI HAQIDA QARASHLARI. *ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR*, 8(82), 133-136.

9. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(41), 452-458.

10. Olimjonovna, R. Z. (2024). O 'YIN TERAPIYASI BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 3(35), 190-195.

11. Olimjonovna, R. Z., & Xusnatilla o'g'li, N. Q. (2025). O 'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA BOILOGIK VA IJTIMOY OMILLARNING TA'SIRI. *Научный Импульс*, 3(33), 30-33.



12. Rahmatullayeva, Z. (2024). FALSAFIY TA'LIMOT NOMOYONDALARI QARASHLARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT MUAMMOSINING ORGANILGANLIGI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).
13. Рахматуллаева, З. О. (2024). Изучение проблемы эмоционального интеллекта во взглядах деятелей философского учения. *Scientific aspects and trends in the field of scientific research*, 2(21), 440-443.
14. Рахматуллаева, З. (2022). Профессиональное становление и педагогическое мастерство учителя. *Ученый XXI века*, (5-1 (86)), 37-38.
15. РАХМАТУЛЛАЕВА, З. ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО УЧИТЕЛЯ. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум*, 37-38.
16. Рафикова, Р. А. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ STEAM-ТЕХНОЛОГИЙ КАК ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ: Рафикова Рената Анатольевна. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 22(3), 407-413.
17. Rustamova, G. Z. X. Q., & Dilshoda, T. U. (2025). Keksalarni yosh chegaralari psixologik muammo sifatida. *Science and Education*, 6(5), 356-361.
18. Rustamova, G. X. Q. (2025). Oilaning tarixiy rivojlanishi va bola tarbiyasidagi ijtimoiy psixologik o' rni. *Science and Education*, 6(3), 205-208.
19. Хорошун, М.Э. Развитие эмоциональной компетентности мальчиков и девочек 4 – 5 лет / М.Э. Хорошун // Психология XXI века: тез. междунар. науч.-практ. конф. студ. и аспирантов, Санкт-Петербург, 22 – 24 апр. 2005 г.; под ред. Б.В. Чеснокова. – СПб.: Изд-во Санкт-Петерб. ун-та, 2005. – С. 293 – 296.
20. Harrod, N.R. An exploration of adolescent emotional intelligence in relation to demographic characteristics / N.R. Harrod, S.D. Sheer //



Adolescence. – 2005. – Mode of access: [http:
www.findarticles.com/p/articles/.](http://www.findarticles.com/p/articles/)